

BORXES VA SHARQ
(Simurg‘ qushi haqida ayrim mulohazalar)

Tolib Najmiddinov,
*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti tadqiqotchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada argentinalik yozuvchi X.L.Borxes ijodida esse janrining tutgan o‘rni, asarlariga xos muhim xususiyatlar, xususan, afsona va asotirlar, sirli-sehrli, xayoliy fantastik motiv va janri, mifologiya, afsonaviy semurg‘ qushi haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** Simurg‘, esse, mifologiya, afsona, janr, badiiy tafakkur.*

***Abstract.** In this article, the Argentine writer X.L.Borges work focuses on the role of the esse genre, important features inherent in his works, in particular, myths and asothers, a mysterious-magical, imaginative fantastic motif and genre, mythology, the legendary semurg bird.*

***Keywords:** simurgh, genre, essay, mythology, myth, artistic thinking.*

***Аннотация.** В этой статье аргентинский писатель х.Л.В творчестве Борхеса заметна роль жанра очерка, значительных черт, присущих его произведениям, в частности мифа и сказания, мистико-магического, фантастического мотива и жанра, мифологии, мифической птицы семурга.*

***Ключевые слова:** симург, жанр, очерк, мифология, миф, художественное мышление.*

Dunyo xalqlari mifologiyasida qush kultiga ishonch asosida kelib chiqan obrazlar o‘ziga xos semantik tiplari, poetik vazifalari bilan og‘zaki va yozma asarlarda alohida o‘rin tutgan. Ular, asosan, folklorning epik janrlarida qahramonga homiy yo raqib sifatida badiiy talqin qilinib, insonni ilohiy olam bilan bog‘lovchi vazifada aks ettirishi, buning natijasida bashariyat poetik tafakkurining mif-marosim-folklor-adabiyot bosqichida taraqqiy etganligi, qushlar obrazining badiiy evolyutsiyasini aniqlash alohida e‘tiborni tortib kelgan.

Mifologik qushlar to‘qima obraz bo‘lib, ko‘pincha epik qahramonlarga yetib bo‘lmas va xayolan tasavvur qilingan manzilga borishda, bajarilishi imkonsiz bo‘lgan, aslida sodir bo‘lishi orzu qilingan ishni bajarishda yordamchi, xomiy obrazlarida gavdalantiriladi. Ular inson qiyofasiga evrilishi va inson tilida gapira olishi bilan taroyiblik kasb etadi. Mifologik qushlar obrazi epik asar syujetiga fantastik ruh bag‘ishlaydi.

Qadimgi Shark xalqlari folklorining obrazlar tizimidan mustahkam o‘rin olgan Anqo qush obrazi, ertakshunos K.Imomov aytganidek, o‘zbek xalq ertaklarida ham an’anaviy personajlardan biridir.¹

M.B.Piotrovskiy Anqoning Semurq, Garuda kabi xayoliy qushlarga o‘xshatib

¹ Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari // O‘zbek folklorining epik janrlari. - Toshkent, 1981. - B.63.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

talqin qilinishini ta’kidlaydi.² Anqo, donboy, ruh, mug‘rib nomlari bilan xam ataladi.³ U juda katta, balandparvoz, zo‘r qush, odamni, mol-xolni changalida ko‘tarib ucha olishi tufayli odamlar uchun xavfli bulganligidan xudo ularni yo‘q qilgani va Ko‘xi Qofga uchirib yuborgani, anqolar yer va osmon o‘rtasida turuvchi Maxluqtog‘ni makon qilgani aytiladi. Shu-shu anqolar Ko‘xi Qofda yashaydigan oti bor, o‘zi yo‘q afsonaviy qush sifatida izohlanadiki, Navoiy asarlari lug‘atida ham ularga nisbatan shunday izoh keltirilgan.⁴

Ko‘pincha abadiy hayot, adolat va baxt, davlat timsollarini ifodalashga xizmat qiluvchi, ertak va dostonlarda epik qahramonni o‘zga olamga olib borib, olib keluvchi vazifasida talqin qilinadigan **Semurg‘ obrazi** dunyo xalqlari, xususan, eronso‘g‘d xalqlari folkloridagi mushtarak mifologik obrazlardan yana biridir. Uning nomi forscha bulib, Simurg‘ (Semurg‘) “si - o‘ttiz, murg - qush, parranda” degan ma’noni anglatadi.

Folklorshunos K.V.Treverning fikricha, Semurg‘ obrazining genezisi kadimgi Markaziy Osiyoliklar mifologiyasida mavjud bulgan Sayana meruga (Senmurv) nomli xayoliy qush haqidagi qarashlarga borib taqaladi. Bu qush it boshli, burgutsimon tumshuqli, ulkan gavdali, katta qo‘sh qanotli, bahaybat, patlari sehrli qush bo‘lib, hamma narsaga qodir deya tasavvur qilingan. “Bundaxishn”da aytilishicha, “og‘zida tishi bor”, ya’ni itga o‘xshash go‘shtxo‘r jonzotdir.

Zardushtiylikning mukaddas kitobi “Avesto”ning 14-yashtida Semurg‘ga ishora kilinib, “Sayana meruga” degan baxaybat kushning Varkasha dengizi urtasidagi “xayot daraxti”ning tepasida in qurgani aytiladi⁵. Hatto ezgulik xudosi Axuramazdaga tenglashtiriladi.

Ayrim ertaklarda Semurg‘ nomi ba’zan Anqo, Murg‘ufarmon, Xumo, Bulbuliguyo, Davlat qushi, Baxt qushi kabi afsonaviy qushlarga o‘xshashlikda tasvirlangani kuzatiladi. Lyekin aslida Semurg‘ obrazi o‘z ko‘rinishiga, badiiy vazifasiga ko‘ra bu qushlardan farq qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi badiiy an‘analarining bevosita ta’sirida o‘zbek mumtoz adabiyotida ham Semurg‘ obrazi badiiy timsol sifatida ko‘p qo‘llanilib kelgan. Jumladan, Abulkosim Firdavsiyning “Shoxnoma”sida Simurg‘ ota-bola paxlavonlar Zol va Rustanning homiysi sifatida tasvirlangan.

Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”

²Piotrovskiy M.B. Ayka // Мифы народов мира. Т.1. - М., 1992. - С.83.

³ O‘sha manba, o‘sha bet.

⁴ Jurayev M. Barok afsonasi yoki kush tuxumidan chikkan it // Yoshlik. - Toshkent, 1992. - №1-2. - B.68-69;

⁵ Jurayev M. Mifologicheskiye osnovy xorezmskix legend o Baroktame // Nauchnoye i kulturnoye naslediyе chelovechestva - tretemu tysyacheletiyu. - Tashkent, 1997. - S.172-173.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

dostonida, Muxammad G‘azzoliy kabi shoirlar o‘z asarlarida Semurg‘ timsolidan qushlar podshosi va ramziy ma’noda Ollohning tasavvufiy obrazini aks ettirish uchun foydalanilgan. Alisher Navoiy Semurg‘ nomini so‘z o‘yini sifatida qo‘llab, o‘z davriga xos diniy-falsafiy g‘oyani ilgari surgan. Dostonda Semurg‘ obrazi majoziy ma’no kasb etgan. Hudhud qushlarga Simurg‘ haqida aytib bergach, qushlar uni izlab topishga ahd qiladi, ammo oxirida kushlar Semurg‘da o‘zlarini ko‘rishadi.

Semurg‘ obrazi o‘zida abadiy hayot g‘oyasini ifoda yetadi. Shuning iduin u hayot daraxti haqidagi mifologik qarashlar bilan bog‘liq. Semurg‘ obrazi misolida ibtidoiy insonlarning jonning o‘lmasligi, bir uijuddan boshqa vujudga ko‘chib yurishga, turli cvrilishlarga nehrashiga ishonchlar ham ifoda etiladi,

Semurg‘ haqidagi mifik tasavvurlar genezisi qadimgi insonlarning hontiy kuchlar, Ajdodlar kulti. Qush kulti, jonni qush ko‘rinishida tasavvur qilishga asoslangan animistik tushunchalariga aloqador estetik qarashlar zaminida shakllangan va epik talqin qilina horgan.

Semurg‘ asli forscha so‘z bo‘lib, o‘ttizta qush demakdir.

Ma’lumki, qadimgi insonlar narigi dunyoni bu olamning teskarisi deb anglagan. Shu tushuncha-tasavvurlar asosida Semurg‘ ikki olam o‘rtasidagi vositachi sifatida talqin qilinar ekan, yer osti olamidan yer usti olamiga uchib o‘tish qobiliyatiga ega ekanligi Borxesda katta qiziqish uyg‘otadi.

Borxesning “Simurg‘” va “Simurg‘ va Burgut” essellarini tahlilga tortar ekanmiz, yuqorida keltirilgan afsonaviy qush bilan bog‘liq syujetlarga e’tibor qaratish joiz.

Farididdin Attorning XII asr forscha tasavvufiy “Mantiq ut-tayr” asari Borxesning hikoya qilish vositalari, syujet qurilishi va adabiyot falsafasiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Tasavvufda Simurg‘ ilohiy mohiyatni biladigan Komil insonni anglatadi. Bu mavjudotni, afsonaviy qush kabi, ko‘rish mumkin yemas. Shuningdek, u yaqin Sharq tasviriy san’ati va adabiyotidagi yeng mashhur tasvirlardan biridir. Borxesda bu afsonaning o‘ziga xos talqini bor. Uning yozishicha, qushlar buyuk podshoh o‘rniga o‘z oldilarida oynani ko‘rganlarida, “o‘zlari ham Simurg‘lik ekanliklarini, har biri alohida-alohida va birgalikda tushunib yetganlar”. Muallif haqiqat har birimizning ichimizda ekanligini va inson Xudoni o‘zida kashf etishi kerakligini isbotlaydi, chunki “izlovchilar izlagan narsasidadir”. Syujet Eron afsonalarida “adolatli hukmdor” arxetipi bo‘lgan va feniks qushi kabi kuldan qayta tug‘ilish qobiliyatiga ega bo‘lgan fantastik qush Simurg‘ni qushlarning izlashi haqidagi afsonaga asoslangan.

“Barcha qushlarning podshohi – Simurg Xitoyning markaziga ajoyib patlarini tashlaydi: ularning asriy anarxiyasi (rahbarsizlik, hokimiyatsizlik)dan charchagan

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qushlar uni qidirishga qaror qilishdi. Ular shohlarining ismi o‘ttizta qush ma’nosini bildirishini; ular uning saroyi yerni o‘rab turgan aylana tog‘ – Ko‘xi Qofda joylashganligini bilishadi”.

Ular deyarli cheksiz sarguzashtga kirishadilar. Ular etti vodiya orqali o‘tadi; birinchi vodiya – talab, so‘nggi vodiya – oxiridan faqru. ko‘p ziyoratchilar taslim bo‘lishadi; boshqalar halok bo‘ladi. O‘ttiz kishi o‘zlarining sa‘y-harakatlari bilan poklanib, Simurg‘ tog‘iga qadam qo‘ydilar. Nihoyat, ular bunga qarashadi: ular Simurg‘ yekanligini va Simurg‘ ularning har biri yekanligini anglaydilar. Simurg‘da o‘ttizta qush va har bir qushda Simurg‘ bor.”⁶

Bu parchada Borxes doston zamiridagi syujetning qisqacha mazmunini, 4500 misradan iborat forscha “Mantiq ut-tayr” asarini taqdim etadi. Doston tahminan 1200-yillarda so‘fiy shoir Farididdin Attor tomonidan yozilgan. Bu ko‘pincha Xudoga intilishning allegoriyasi sifatida talqin qilinadi. Borxes talqinida u panteizmning⁷ ifodasiga aylanadi. Bu neoplatonik (asosini — “bir”, “aql” va “jon dialektikasining rivojlanishi tashkil qiladi) g‘oyalar bilan bog‘liq: qanday qilib turli xil, bir biridan farq qiluvchi mavjudotlar bitta, mukammal mavjudotga birlashishi mumkin.

Borxes “Simurg‘ va Burgut” essesda Attorning Simurg‘i “Ilohiy komediya”dagi Dantening Burgutidan yuksakroq ekanligini ta’kidlaydi. Ikkala obraz ham aslida ko‘pchilikning yagona xilqatga birlashishi bilan bog‘liq. Borxesning fikriga ko‘ra, Attorning Simurg‘i Dante burgutidan ancha farq qiladi, chunki har bir qushning o‘z botini bor va to‘g‘ri Simurg‘ga aylanadi. Dantening burguti, aksincha, ko‘plab ilohiy (Dovud, Trayan, Hizqiyo) xususiyatlardan iborat bo‘lsada, shaxsiyatini saqlaydi hamda u bir lahzalik ramzdir, uni tasvirlovchi o‘zidan qiyoslaydi.⁸ Attorning she’ri aslida huddi shu mavzuni aks ettiruvchi o‘xshash va o‘xshashliklar bilan to‘la. Shoir qushlar galasining so‘nggi holatini o‘ziga xos tasvirlaydi:

*Porladi qurbat quyoshi, sochdi nur,
Jumla jonlarga nasib etdi huzur.
Chehra ochdi bo‘yla Simurg‘i jahon,
Ko‘rdilar Simurg‘ni qushlar ul zamon.
Kurdilar Simurg‘ni, go‘yo tush edi,*

⁶ Borges, Jorge Luis y Guerrero, Margarita. Manual de zoología fantástica (1ª ed. 1957), México: Fondo de Cultura Económica. 1966. 159 pp. P.-45.

⁷ Panteizm – bu Xudoni birlashtiradigan, koinot hamma narsani qamrab oluvchi birlik sifatida tadqin qiladigan, tabiatning muqaddasligi aniqlaydigan falsafiy ta’limot

⁸ Borges, X.L., “El Simurgh y el águila”, Nueve Ensayos Dantescos. Obras Completas, III.: Buenos Aires, Emecé, 1989, pp.366.

*Aslida Simurg‘ u o‘ttiz qush edi.*⁹

Ziyoratchilar noma‘lum maqsadni qidirib yo‘lga chiqishadi; faqat oxirida oshkor, ayon bo‘ladigan bu “maqsad” hayrat uyg‘otishi va va oddiy ko‘rinmasligi kerak edi. Muallif bu qiyinchilikdan mumtoz nafosat bilan chiqish yo‘lini mohirlik bilan topadi – orzu-umid. Biz o‘zimizni (Semurg‘) topishning bir usuli sifatida ushbu izlanish orqali bir birimiz bilan muloqot qilamiz. Borxes yakuniy eslatmada agar biz “biz” qidirayotgan narsamizni topsak yoki anglasak: gapirishni to‘xtatamiz va sukut saqlaymiz degan xulosani beradi.

Ma‘lumki, qadimgi insonlar narigi dunyoni bu olamning teskarisi deb anglagan. Shu tushuncha-tasavvurlar asosida Semurg‘ ikki olam o‘rtasidagi vositachi sifatida tal kin kilinar ekan, yer osti olamidan yer usti olamiga chikkunicha bosib utiladigan masofadan uchib utish chogida kaxramonga

Shunday qilib, G‘arb va Sharq miflarining muallif niyatlari bilan bog‘liqligi juda yaqin, ular yordamida Borxes inson qalbining Xudoga, muhabbat va adolatga intilishi talqinida maksimal panoramaga erishishga intiladi. “Simurg‘ va burgut” inshosida Borxes transmadaniy yozuvchi sifatida g‘alati chegara hududlarini yaratadi, ularda xorijiy madaniy konstanta (ma‘lum doimiylik bilan takrorlanadigan nutq ritmining yelementi)lar muallifning ruhiy holatlari bilan to‘qnashadi va o‘zaro ta’sir qiladi, dunyoning yangi mifopoetik tasvirida ovozlarning polifoniyasini¹⁰ shakllantiradi.

Borxesning 1975-yilda “La rosa profunda” she‘rlar kitobida chop etilgan “Tuganmas atirgul” she‘ridagi matnlarida Attor haqida yana bir eslatma bor. Attorga oid boshqa ishoralardan farqli o‘laroq, “Tuganmas atirgul”da “Mantiq ut-tayr” to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilga olinmaydi, balki Attor tarjimai holidagi tafsilotlardan foydalanib, u bilan Borxes o‘rtasida so‘zsiz qiyoslanadi. She‘r syujitida ko‘zi ojiz Attor atirgulning tiriklik chegarasida o‘zining tug‘ilib o‘sgan shahri Nishopurni vayron qiladigan mo‘g‘ullar istilosi mash‘um tarzda yaqinlashishi haqida fikr yuritadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari // O‘zbek folklorining epik janrlari. — Toshkent, 1981. — B.63.
2. Piotrovskiy M.B. Ayka // Mify narodov mira. T.1. — M., 1992. — S.83.
3. Jo‘rayev M. Baroq afsonasi yoki qush tuxumidan chiqqan it // Yoshlik. — Toshkent, 1992. — №1-2. — B.68-69;

⁹ Fariduddin Attor. Mantiq ut-tayr. Tarjimon: Jamol Kamol. – T.: "Fan" nashriyoti. 2006. 400-357 b.

¹⁰ XX asr adabiyotshunosligida (M. M. baxtin va uning izdoshlari) “polifonizm” so‘zi yangi janr ma‘nosida ishlatiladi, bu nafaqat ko‘plik bilan, balki “to‘laqonli ovozlarning polifoniyasi”, ya‘ni “teng nufuzli ko‘plik” bilan ham tavsiflanadi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

4. Jurayev M. Mifologicheskiye osnovy xorezmskix legend o Baroktame // Nauchnoye i kulturnoye naslediye chelovechestva — tretemu tysyacheletiyu. — Tashkent, 1997. — S.172-173.
5. Borges, Jorge Luis y Guerrero, Margarita. Manual de zoología fantástica (1ª ed. 1957), México: Fondo de Cultura Económica. 1966. 159 pp. P.-45.
6. Borges, X. L., “El Simurgh y el águila”, Nueve Ensayos Dantescos. Obras Completas, III.: Buenos Aires, Emecé, 1989, pp.366.
7. Fariduddin Attor. Mantiq ut-tayr. Tarjimon: Jamol Kamol. – T.: "Fan" nashriyoti. 2006. 400-357 b.
8. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
9. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
10. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.